

3-SINFDA SIFAT MAVZUSINI O'RGANISH DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH

Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lif berish jarayonida Ona tili fanining "Sifat so'z turkumi" mavzusini o'qitishda muammoli ta'lif texnologiyalaridan foydalanishning metodik asosi yoritilgan. Mazkur maqola umumta'lif maktablarining ona tili darslarida foydalanish uchun manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik, ta'lif, boshlang'ich sinf, ta'lif texnologiyalari.

KIRISH

Yangi pedagogik bilimlar ko'ldomi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun talablari asosida kengayib bormoqda, tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakllantirish muammolariga qaratilyapti. Bugungi kunda ta'lif-tarbiya jarayonida ta'lifning turli o'qitish metodlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ona tili darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o'quvchilarda hamkorlikda ishslash ko'nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar, o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qishga, ta'lif olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar. Ayni paytda har qanday o'quv maskanlarida muammoli o'qitish texnologiyasi samarador hisoblanadi. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish bo'lib u ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlari muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini hamda savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

o'quvchida notanish faktning mavjud bo'lishi:

– vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi. Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya'ni — nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan. Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u, avvalambor, o'quvchilarning mustaqil aqliy

faoliyatidir. U o‘quvchini intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so‘z bilan ifodalash, ya’ni — faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o‘rinda izchillik yorqin ko‘rinadi: avvalo, muammoli vaziyat yuzaga keladi, so‘ng o‘quv muammozi shakllanadi. O‘qitish jarayonida o‘quv muammozing muhim belgilari ham mayjud. O‘quv muammozing muhim belgilari quyidagilar: — yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo‘silishi; — o‘quvchilarda noma'lumni topish yo‘lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muayyan bilim zahirasining bo‘lishi.

NATIJA TAHLILI

O‘quvchi o‘zi xohlagan vaziyatda fikrlay olishi har qanday savolga to‘g‘ri javob berishi uchun, to‘g‘ri fikrlay olishi uchun dars davomida ularning turli texnologik, ya’ni bolalarmi ongini fikrlash doirasi kengayishini rivojlantruvchi g‘oyalar, ya’ni loyihalar orqali darslar tashkil etilib bolani rivojlantiriladi va ularga turli xildagi oddiy va murrakab tushunchalar berila boriladi. Boshlang‘ich sinflarda sifat turkumini o‘rganish tizimi o‘quv materialini leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko‘zda tutadi. O‘quvchilar savod o‘rgatish davridan boshlab, to 4- sinfga qadar belgi bildiruvchi so‘zlarning — sifatning leksik va grammatik ma’nolarini boshlang‘ich sinf ona tili dasturi hajmida o‘rganadilar. Savod o‘rgatish davrida belgi bildirgan so‘zlarning ma’nolarini o‘qituvchining “Mazasi qanday olma? Rangi qanday olma? Hajmi qanday olma?” kabi savollari asosida kuzatish orqali amaliy bilib boradilar.

1 va 2-sinfda o‘quvchilarga sifat nima ekanini o‘rgatib boriladi va qiziqrli bo‘lishi uchun turli xil dars materiallaridan foydalaniladi, ularni sifat qanday so‘roqlarga javob bo‘lishi o‘rgatiladi va ularga sifat to‘g‘risida tushuntrirish olib boriladi, ya’ni sifat qanday, qanaqa savollariga javob bo‘lishi va uni yodda saqlab qolish uchun unga misollar keltiriladi. Misol uchun qizil olma, bunda, ya’ni shu so‘zda sifat qanday savoliga javob bo‘lsa, qanday olma? qizil olma deyiladi shunda sifat olmaning qizilagini ifodalab kelgan bo‘ladi. Shunga o‘xhash ko‘p misollar keltirib bolalar ongida sifat qanday, qanaqa so‘ziga javob bo‘lishini yodda saqlanib qolishiga, ya’ni shu darajaga kelguncha takrorlaydilar va ular buni saqlab qoladi va o‘qituvchi misol aytdi va uni endi o‘quvchi tahrirlab berishi lozim. Ya’ni, qanday o‘qituvchi aytadi, qizil shapkali qiz; bu yerda sifat qaysi so‘z deb savol beradi o‘quvchilar har bir so‘zga savol berib chiqishadi, ya’ni qizil qanday, shapka nima, qiz kim bu yerda qizil sifat chunki bu qanday so‘rog‘iga javob bo‘lyapti deydi. Shu tarzda savol javoblar orqali o‘quvchini saqlab qolish qobiliyati rivojlna boshlaydi. Bunda o‘qituvchi oldida turgan muhim vazifa o‘quvchilarning narsa va shaxsning belgilari xilma-xil bo‘lishini, ya’ni narsa rangi, mazasi, shakli, hidi, hajmi, xususiyatlariga ko‘ra farqlanishini, bular narsa va shaxsning belgilari ekanini anglashlariga erishish, nutqda ulardan samarali

foydalananish orqali o‘quvchilar nutqini belgi bildirgan so‘zlar bilan boyitish va nutqini o‘stirishdir. Ayniqsa, o‘quvchilarga narsa va shaxslarni belgilariga ko‘ra tavsiflashga doir mashqlarga va bunga oid o‘quv topshiriqlariga katta ahamiyat berish lozim. 3-4-sinflarda esa sifat atamasi bilan tanishtirilgach, mazkur atama bilan elementar nazariy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. 3-4-sinfda o‘quvchilarning sifatlarning o‘ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari haqidagi bilimlari va ko‘nikmalariga asoslanib, og‘zaki va yozma ijodiy ishlar — maktab bog‘i yoki istirohat bog‘iga sayohat uyushtirib, u yerda kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab, kichik hikoya tuzish kabilarga alohida o‘rin beriladi. Buni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ona tili va o‘qish darslarida ma’nodosh va zid ma’noli sifatlar, sifatning o‘z va ko‘chma ma’nolarda ishlatalishini kuzatishga, sifat yasashga doir leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma’lum bo‘lgan sifatlarning ma’nosiga aniqlik kiritiladi. Sifatlar bolalar nutqini va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Sifatlar narsa va hodisalarini aniq tasvirlash, ifodalash imkonini beradi. Bu imkoniyatdan foydalanim, ijodiy matn tuzishga o‘rgatish o‘quvchilarning fikrini aniqlashtiradi, nutqining ta’sirchanligini oshiradi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinflar dasturi o‘quvchilarni so‘z turkumlari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linishi bilan maxsus tanishtirishni ko‘zda tutmaydi, ammo o‘qituvchi bolalarni so‘z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. So‘z turkumlarini o‘rganishdagi asosiy vazifa o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘atini yangi ot, sifat, son, fe’llar bilan boyitish, o‘quvchilar shu vaqtgacha foydalanim kelayotgan so‘zlarning ma’nosini aniq tushunishiga erishish, bog‘lanishli nutqda u yoki bu so‘zdan o‘rinli foydalananish malakasini o‘stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida sinonim, antonimlar ustida muntazam ish olib boriladi, o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlar, ularning o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatalishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta’limni o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko‘rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog‘lash muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida so‘z turkumlarini o‘rganish katta va salmoqli o‘rin egallaydi. So‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshiriladi. Ular adabiy-orfoepik talaffuz me’yorlarini egallaydi, imloviy savodxonlik shakllanadi. Og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutqi o‘sadi. O‘zgalar fikrini anglay olish, o‘qiganlarini o‘zlashtirish, o‘z fikrlarini boshqalarga, tinglovchiga erkin, tushunarli qilib yetkaza olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatishning amaliy ahamiyati nazarda tutilgan bo‘lsa, uni o‘rgatishning samarador metod va vositalarini ishlab chiqish zarurligini anglash qiyin emas.

Jumladan, ona tili darslarida o‘quvchilarni mavzuni o‘rganishga doir badiiy asar materiallaridan foydalanishga o‘rgatish ham o‘zining samarali natijalarini beradi. Shuni hisobga olgan holda, 4 sinflarda ot, sifat so‘z turkumlarining murakkab grammatik xususiyatlarini o‘rganishda ona tili darsi bilan o‘qish darslarini integratsiyalash bo‘yicha olib borish ham samarali natija beradi. “Ot” mavzusini o‘rganish jarayonida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladigan matnlardan unumli foydalanish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Avliyakulov N.X., Namozova N.J. Muammoli o‘qitish texnologiyalari. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
2. G‘afforova T.Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur, 2011.
3. Muslimov N. va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari – Toshkent: 2015.
4. Qosimova K. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2009.
5. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.